


SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 41 091 tani tashkil etdi, shundan 34 495 tasi yoki 84,0 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan 109,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 109,6 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	41 091	34 722	34 495
2025	37 514	31 669	31 470
2024	43 477	37 598	37 398
2023	54 163	48 155	47 943
2022	46 667	40 903	40 724

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Samarqand shahrida – 30,0 foiz, Samarqand – 8,2 foiz, Pastdarg'om – 7,4 foiz, Urgut – 7,8 foiz va Payariq – 4,8 foiz tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Samarqand shahrida – 31,4 va 31,3 foiz, Samarqand tumanida – 8,7 va 8,7 foiz, Pastdarg'omda tumanida – 7,2 foiz va 7,2 foiz, hamda Urgut tumanida – 7,6 va 7,6 foiz to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Samarqand viloyati	41 091	34 722	34 495
Samarqand sh.	12 363	10 922	10 808
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar	1 320	1 141	1 136
Oqdaryo	1 629	1 366	1 363
Bulung'ur	1 720	1 425	1 418
Jomboy	1 548	1 304	1 294
Ishtixon	1 930	1 587	1 585
Kattaqo'rg'on	2 013	1 624	1 618
Qo'shrabot	1 203	934	931
Narpay	1 457	1 145	1 143
Payariq	1 997	1 616	1 610
Pastdarg'om	3 030	2 513	2 497
Paxtachi	1 157	893	886
Samarqand	3 360	3 037	3 009
Nurobod	1 375	1 126	1 123
Urgut	3 238	2 626	2 616
Toyloq	1 751	1 463	1 458

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda. Ularning ulushi 2026-yil 1-yanvar holatiga 35,6 foizni (42,1 foiz va 42,3 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,6 % (13,7 % va 13,6 %), uchinchi o'rinda "Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar" 8,7 % (10,2 % va 10,2 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Jami	41 091	34 722	34 495
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 539	2 500	2 493
Sanoat	4 762	4 753	4 694
Qurilish	2 236	2 216	2 197
Savdo	14 617	14 617	14 578
Tashish va saqlash	1 047	1 041	1 023
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 557	3 545	3 531
Axborot va aloqa	723	703	694
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 499	998	993
Boshqa turlar	10 111	4 349	4 292

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 34 722 ta faol tijorat korxonalaridan 24 357 tasini mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	24 357	70,1
Xususiy korxonalar	3 795	10,9
Oilaviy korxonalar	6 235	18,0
Aksiyadorlik jamiyati	26	0,1
Boshqalar	309	0,9

Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 678 ta korxonalardan 262 tasi qo'shma korxonalar va 416 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 2025-yilning mos davriga nisbatan 108 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 203 tadan 249 taga, (o'sish 46 taga), savdo sohasida 154 tadan 174 taga (o'sish 20 taga), hamda tashish va saqlashva sohasida 17 tadan 27 taga (o'sish 10 taga) ko'payishi hisobiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	678	262	416
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	37	20	17
Sanoat	249	120	129
Qurilish	39	16	23
Savdo	174	46	128
Tashish va saqlash	27	9	18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	35	11	24
Axborot va aloqa	27	4	23
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	8	8
Boshqa turlar	74	28	46

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 205 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,2 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Turkiya (16,9 %), Rossiya Federatsiyasi (14,8 %), Janubiy Koreya (4,3 %) va Tojikiston (3,4 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	678	262	416
Xitoy	205	65	140
Turkiya	115	38	77
Rossiya	101	38	63
Janubiy Koreya	29	14	15
Tojikiston	23	5	18
Hindiston	21	4	17
AQSH	21	15	6
BAA	16	4	12
Germaniya	15	13	2
Qozog'iston	15	4	11
Afg'oniston	14	6	8
Ozarbayjon	9	5	4
Pokiston	8	1	7
Buyuk Britaniya	7	5	2
Yaponiya	6	4	2
Belorusiya	4	1	3
Turkmaniston	3	2	1
Qirg'iz Respublikasi	2	-	2
Boshqa Davlatlar	64	38	26

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)



Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va Statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
F. Zulfukarov
66 231-12-58 (3060)

Maznil:
140100, Samarqand sh.,
U.Tursunov ko'chasi, 82-uy
